International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service
Vol. 1 Issue 1 | pp. 238-241 **| ISSN:** XXXX-XXXX
Available online @ https://globalconf.net/index.php/samisi

Article

Directions for Reducing Economic Disparities in Regional Development

Fayziyeva Sh. Sh.*[1], Olimova S. I.[2]

1. Professor, Qarshi davlat texnika universiteti.
2. Qarshi davlat texnika universiteti 1-kurs magistranti

* Correspondence: fayziyevashirin66gmail.com

Abstract: This article examines the nature and causes of economic disparities that arise during the process of regional development, as well as priority measures for mitigating them. It analyzes existing regional differences in terms of production potential, the capacity to attract investment, the utilization of labor resources, the availability of infrastructure, and household income. Furthermore, based on the specific characteristics of economic development in the regions of Uzbekistan, the article puts forward research-based, practical proposals and recommendations.

Keywords: regional development, economic disparity, regional imbalance, investments, economic potential, industrial diversification, infrastructure, entrepreneurship, human capital, regional economic policy.

1. Kirish

Jahon iqtisodiyotida globallashuv, raqamli transformatsiya va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida hududlarning barqaror va muvozanatli rivojlanishini ta’minlash davlat iqtisodiy siyosatining muhim strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki mamlakat iqtisodiyotining umumiy o‘sish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishi barcha hududlarda bir xil iqtisodiy rivojlanish va aholi farovonligi ta’minlanganligini anglatmaydi. Ayrim hududlarda sanoat ishlab chiqarishi, zamonaviy xizmatlar, investitsiya faoliyati va tadbirkorlik jadal rivojlanayotgan bo‘lsa, boshqa hududlarda iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi, infratuzilma yetishmovchiligi, malakali kadrlar tanqisligi va ish o‘rinlarining kamligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Natijada hududlar o‘rtasida yalpi hududiy mahsulot, aholi jon boshiga daromadlar, mehnat unumdorligi va iqtisodiy faollik darajasi bo‘yicha tafovutlar yuzaga kelmoqda.

2. Adabiyotlar Sharhi

Hududiy rivojlanishda iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish masalasi iqtisodiy nazariya va mintaqaviy iqtisodiyotning muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Iqtisodiy o‘sish nazariyasining asoschilaridan biri R.Solou o‘zining neoklassik iqtisodiy o‘sish modelida kapital jamg‘arilishi, mehnat resurslari va texnologik taraqqiyotning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini asoslab bergan. [1]. P. Romer endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasida bilimlar, innovatsiyalar va inson kapitalini uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning muhim manbalari sifatida talqin qilgan [2]. P. Krugman yangi iqtisodiy geografiya nazariyasida ishlab chiqarishning hududiy joylashuvi, bozor hajmi, transport

Citation: Sh., F. Sh., & I. O. S. Directions for Reducing Economic Disparities in Regional Development. International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service 2026, 1(1), 238-241.

Received: 24th Aug 2026
Revised: 26th Sep 2026
Accepted: 28th Oct 2026
Published: 22nd Nov 2026

Copyright: © 2026 by the authors. Submitted for open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

xarajatlari va aglomeratsiya samaralarining iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini tadqiq etgan [3]. Uning ilmiy qarashlariga ko‘ra, iqtisodiy faoliyatning muayyan markazlarda jamlanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi bilan birga, markaz va chekka hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy farqlarni ham kuchaytirishi mumkin. Bu esa hududiy iqtisodiy siyosatda ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish va hududlararo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish zarurligini anglatadi. R. Barro va X. Sala-i-Martin iqtisodiy o‘sish va konvergensiya jarayonlarini tadqiq etib, mamlakatlar va hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish farqlarini baholashning nazariy va empirik asoslarini ishlab chiqqanlar [4].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Q.Abdurahmonovning ilmiy ishlarida mehnat iqtisodiyoti, aholi bandligi, mehnat resurslaridan samarali foydalanish va inson kapitalini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan [5]. Sh. Shodmonov va boshqa mahalliy iqtisodchi olimlarning iqtisodiy nazariya, bozor munosabatlari va iqtisodiy islohotlarga bag‘ishlangan tadqiqotlari ham hududiy iqtisodiy jarayonlarning nazariy asoslarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi [6]. A. Vahobovning moliya, budjet munosabatlari va iqtisodiy rivojlanish masalalariga oid ilmiy qarashlari hududlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, budjet resurslaridan samarali foydalanish va hududiy iqtisodiy siyosatning moliyaviy asoslarini takomillashtirish nuqtai nazaridan ahamiyatlidir [7]. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotlarda hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga ta’sir etuvchi omillarni kompleks baholash, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash va hududlarning individual iqtisodiy imkoniyatlariga asoslangan rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgan.

3. Tadqiqot Metodologiyasi

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini hududiy iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy konvergensiya, mintaqaviy raqobatbardoshlik va hududiy iqtisodiy siyosatga oid nazariy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarning shakllanish xususiyatlarini aniqlash, ularga ta’sir etuvchi asosiy omillarni baholash hamda iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirishning samarali yo‘nalishlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy usullardan foydalanildi. Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida hududiy iqtisodiy rivojlanish ko‘p omilli jarayon sifatida qaralib, investitsiya, sanoat, tadbirkorlik, mehnat resurslari, infratuzilma va innovatsion faoliyatning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi.

4. Tahlil Va Natijalar

Hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tenglashtirish bilan cheklanmaydi. Ushbu jarayon har bir hududda mavjud tabiiy, mehnat, ishlab chiqarish, investitsiya va innovatsion salohiyatdan oqilona foydalanish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish hamda aholi uchun munosib yashash sharoitlarini yaratishni ham nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan, hududiy rivojlanishda iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Hududiy iqtisodiy tafovut - bu mamlakatning alohida hududlari o‘rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish hajmi, investitsiya faolligi, bandlik, aholi daromadlari, infratuzilma va ijtimoiy xizmatlar sifati bo‘yicha mavjud farqlar majmuasidir.

Hududlar iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni baholashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi hududiy mahsulot hajmi.
2. Sanoat ishlab chiqarishining hududiy tarkibi.
3. Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi.
4. Aholi bandligi va mehnat unumdorligi.
5. Aholi daromadlari va kambag‘allik darajasi.
6. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish darajasi.

7. Transport, energetika va raqamli infratuzilma bilan ta’minlanganlik.
8. Ta’lim, tibbiyot va boshqa ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari.[8]

Ushbu ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligini kompleks tahlil qilish hududlar rivojlanishidagi mavjud nomutanosibliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishning samarali yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi bo‘yicha Toshkent shahri yetakchi o‘rinni egallagan. Sirdaryo viloyatida esa hududlar kesimida yuqori iqtisodiy o‘sish sur’ati qayd etilgan. Bu holat iqtisodiy rivojlanishning mutlaq hajmi bilan o‘sish sur’atini bir-biridan farqlash zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot ko‘rsatkichi hududlarning iqtisodiy samaradorligini qiyosiy baholashda muhim ahamiyatga ega. 2025-yil ma’lumotlariga ko‘ra, Navoiy viloyatida ushbu ko‘rsatkich 152,2 mln so‘mni, Toshkent shahrida 116,7 mln so‘mni, Surxondaryo viloyatida esa 22,2 mln so‘mni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarning mavjudligini yaqqol namoyon etadi.[9] Demak, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlar ko‘p omilli xususiyatga ega bo‘lib, ularni kamaytirish kompleks va uzoq muddatli iqtisodiy siyosatni talab qiladi.

Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishda davlatning hududiy iqtisodiy siyosati, mahalliy boshqaruv organlari faoliyati, xususiy sektor va investitsiya institutlari o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Bunda hududlarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bizning fikrimizcha, ushbu jarayonda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish lozim.

1. Hududiy investitsiya siyosatining samaradorligini oshirish.
2. Hududiy sanoatni diversifikatsiya qilish va ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish.
3. Transport, logistika va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirish.
4. Inson kapitalini rivojlantirish va hududiy mehnat bozorini takomillashtirish.
5. Kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish.
6. Raqamli iqtisodiyot va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish.
7. Hududiy boshqaruv va moliyaviy mustaqillikni kuchaytirish.

Hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish bo‘yicha quyidagi takliflarini ilgari surish mumkin:

1. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning differensial modelini joriy etish. Bunda har bir hududning iqtisodiy ixtisoslashuvi, resurs salohiyati, demografik xususiyatlari va investitsiyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, alohida rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish.

2. Hududiy iqtisodiy tafovutlarni baholashning kompleks indeksini shakllantirish. Ushbu indeks tarkibiga aholi jon boshiga YaHM, investitsiyalar, bandlik, real daromadlar, sanoat rivojlanishi, transport va raqamli infratuzilma ko‘rsatkichlarini kiritish.

3. Maqsadli hududiy investitsiya fondlarini rivojlantirish. Iqtisodiy imkoniyatlari nisbatan cheklangan hududlarda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan loyihalarni moliyalashtirishga ustuvorlik berish.

4. Hududlararo ishlab chiqarish kooperatsiyasini kuchaytirish. Sanoatlashgan va nisbatan kam rivojlangan hududlar korxonalari o‘rtasida xomashyo yetkazib berish, qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha hamkorlik zanjirlarini shakllantirish.

5. Inson kapitalini rivojlantirishning hududiy dasturlarini takomillashtirish. Mahalliy mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqib, kasbiy ta’lim, qayta tayyorlash va zamonaviy mutaxassisliklar bo‘yicha ta’lim dasturlarini kengaytirish.

6. Hududiy iqtisodiy rivojlanish natijalarini baholashning monitoring tizimini yaratish. Har bir hududda iqtisodiy o‘sish natijalarining aholi daromadlari, bandlik va turmush sifatiga ta’sirini muntazam baholab borish.

Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni bosqichma-bosqich qisqartirish, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va mamlakatning barqaror hududiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

5. Xulosa

Hududiy rivojlanishda iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi, raqobatbardoshligi va ijtimoiy farovonligini ta’minlashning muhim shartlaridan biridir. Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosibliklar ishlab chiqarish salohiyati, investitsiya faolligi, infratuzilma, mehnat resurslari va innovatsion imkoniyatlarning turlicha shakllanganligi bilan izohlanadi. Shu sababli hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirishda quyidagi xulosalarga kelindi:

- Hududlarning iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda mavjud resurslardan samarali foydalanish va ularning raqobat ustunliklariga asoslangan ixtisoslashuvini rivojlantirish zarur.
- Iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan past hududlarga investitsiyalarni maqsadli yo‘naltirish, sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini diversifikatsiya qilish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.
- Transport, energetika, muhandislik va raqamli infratuzilmani rivojlantirish hududlarning iqtisodiy faolligini oshirish va investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirishning asosiy shartlaridan biridir.
- Hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda inson kapitali, zamonaviy kasbiy ta’lim, innovatsion faoliyat va tadbirkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar alohida o‘rin tutadi.
- Hududiy rivojlanish samaradorligini baholashda yalpi hududiy mahsulot hajmi bilan bir qatorda aholi jon boshiga daromadlar, bandlik, mehnat unumdorligi va ijtimoiy infratuzilma ko‘rsatkichlaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, hududiy rivojlanishda iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishning eng samarali yo‘li hududlarga bir xil iqtisodiy yondashuvni qo‘llash emas, balki ularning individual imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos differensial rivojlanish strategiyasini shakllantirishdan iborat. Bunday yondashuv mamlakat hududlarining iqtisodiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish va aholi turmush darajasini yaxshilashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[1] Solow R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth. – Quarterly Journal of Economics, 1956. Vol. 70, No. 1. - P. 65–94.

[2] Romer P.M. Endogenous Technological Change. - Journal of Political Economy, 1990. Vol. 98, No. 5. - P. S71–S102.

[3] Krugman P. Increasing Returns and Economic Geography. – Journal of Political Economy, 1991. - Vol. 99, No. 3. - P. 483–499.

[4] Barro R.J., Sala-i-Martin X. Economic Growth. - 2nd ed. MIT Press, 2004.

[5] Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. - Toshkent. 2023

[6] Shodmonov Sh.SH. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent. 2021

[7] Vahobov A.V. Moliya va moliyaviy munosabatlarga oid ilmiy ishlar. Toshkent. 2022

[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida.

[9] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati bo‘yicha statistik ma’lumotlar. – 2025.